

О'ZBEKISTON- NIHDISTON DAVLATLARI O'RTASIDA XALQARO MUNOSABATLAR

R.B.Asadova-t.f.n.dots.Iqtisodiyot va
pedagogika universiteti.N.T.M.

Аннотация: В этой статье говорится сквозь призму исторической ретроспективы прослеживается многовековая торговая и культурно-духовная связь народов Узбекистана и Индии, начиная со времен Великого шелкового пути и до обретения независимости нашей республикой.

Ключевые слова: Узбекистан, Индия, сближение народов исторической ретроспективы международные отношения.

Annotation: This article speaks of cooperation between Uzbekistan and India in the historical-retrospective, problem-chronological.

Key words: independent Uzbekistan, India, international relations, international cooperation, legal basis, reciprocal agreements, economy, trade.

Shuni qayd etish lozimki, o'zbek xalqi eng qadim davrlardan boshlab butun insoniyat bilan mustahkam aloqada yashab kelgan. Bunda Buyuk Ipak yo'li turli mintaqa xalqlarini o'zaro yaqinlashtiruvchi asosiy qon tomiri bo'lib xizmat qilgan. U savdo aloqalarini rivojlantirishga, xalqlarning o'zaro madaniy-ma'naviy qadriyatlar bilan almashishiga yordam bergan. Ana shu aloqalar natijasi o'laroq butun jahon ahli o'zbek xalqining buyuk farzandlari, mashhur olimu-ulamolar, davlat arboblari, shoirларini— Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Imom at-Termiziy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalarni yaxshi biladi. Buyuk ajdodlar dunyoqarashida insonparvarlik, do'stlik va xalqlar qardoshligi g'oyalari muhim o'rin egallagan.

Boy tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi asrlar davomida boshqa davlatlar xalqlari bilan yaqin aloqada yashab kelgan. Hozirgi avlodlar ham bu an'anani e'zozlab saqlab kelmoqda. Biroq O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan o'zaro hamkorligining zamonaviy manbalarini chuqurroq anglash uchun tarixga murojaat qilish kerak. Shu munosabat bilan O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov 1998 yilning iyunida mamlakatning etakchi tarixchi olimlari bilan uchrashuv paytida tadqiqot ob'ektlarining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixini chuqur o'rganish zarurligini uqtirib o'tgan. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi suverenitetini tan olgan va u bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan ko'plab mamlakatlar mamlakatimiz bilan qadimdan do'stona aloqalarga ega bo'lganligini ishonch bilan ta'kidlash mumkin. Turli davlatlar xalqlari hamkorligining ko'p asrlik an'analari, ularning ildizi, ta'kidlaganimizdek, Buyuk Ipak yo'li amal qilgan davrga yoki undan ham olis davrlarga borib taqaladi. O'zbek xalqi bilan an'anaviy ravishda qadimdan do'stona aloqalar o'rnatgan davlatlar sirasiga ishonch bilan Hindistonni ham kiritish mumkin.

Hozirgi davrdagi O'zbekiston-Hindiston munosabatlari – bu qadimdan sinovdan o'tgan ko'p asrlik an'anaviy o'zaro manfaatli aloqalarning davomidir. Bunday do'stona aloqalar Buyuk Ipak yo'li davridan avval boshlangan. XX asrning 70-yillarida Shimoliy Afg'onistonda Amudaryo o'zanida (hozirgi O'zbekiston bilan Tojikiston chegarasida) fransuz arxeologlari tomonidan topilgan oltita qo'rg'onda (ulardan biri – Sho'rto'g'ay to'liq qazib, ochilgan) saqlangan Xarrappa madaniyati materiallari ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning qadimiyligidan dalolat beradi. Arxeologik qazilmalar davomida topilgan tarixiy materiallar shundan guvohlik beradiki, eramizdan avvalgi III asrning ikkinchi yarmi va II asrning birinchi yarmida Hind vodiysida istiqomat qilgan odamlar Badaxshon lojuvardini qazib olish maqsadida koloniyalar tuzgan va bu minerallar so'ngra Xarrappa metropoliyasiga yuborilgan.[1 . 263-264.]

Boshqa arxeologik manbalardan ma'lum bo'lishicha, keyinchalik madaniyatlararo aloqalarning jonlanishi kuzatiladi. Ular savdo ayriboshlovi va madaniy-ma'naviy qadriyatlarning tarqalishi orqali sodir bo'ladi. Bu o'rinda hujjatli materiallarga tayangan holda qayd etish mumkinki, har ikki xalq madaniy-tarixiy an'alarining o'zaro ta'sirining avj nuqtasi yigirma asr avval kuzatilgan. Boshqacha aytganda, bu hol O'zbekiston va Hindiston hududlari eng buyuk davlat birlashmalaridan biri bo'lgan Kushonlar imperiyasi davrida sodir bo'lgan. Shuni qayd etish kerakki, o'sha davrda bir imperiyaga birlashgan xalqlarni o'zaro yaqinlashtirgan eng asosiy sabablardan biri Kushonlar saltanatida qaror topgan barqarorlik, elatlararo va konfessiyalararo bag'rikenglik vaziyati bilan izohlanadi.

Har ikki sivilizatsiya o'zaro yaqin hamkorligining navbatdagi bosqichi so'nggi o'rta asrlarga to'g'ri keladi. Masalan, XVI – XVII asrlarda Hindiston siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida va xalqaro munosabatlarida kattadan-katta o'zgarishlar ro'y berdi. Bu hol eng avvalo Hindiston davlatchiligi tarixida asli turkistonlik Temuriylar xonadoni davomchilaridan bo'lmish Zaxiriddin Muhammad Bobur asos solgan Boburiylar saltanatining qaror topishi bilan bog'liqdir. Hindistonda 330 yildan ortiq hukm surgan davrda Boburiylar bu mamlakat tarixida o'chmas iz qoldirganliklari sir emas.[2. 301-303]

Chunonchi, davlat qurilishi, mamlakat boshqaruvi, iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar, fan va madaniyat sohasidagi yutuqlar, qurilish, me'morchilikdagi yuksalishlar, tashqi munosabatlardagi siljishlar – barcha-barchasi ana shu sulola hukmronligi davrida, ular faoliyati orqali yuz berdi.. Mazkur uch asrga yaqin davrning dastlabki ikki yuz yili, ya'ni XVI – XVII asrlar yutuqlar, siljishlar, yuksalishlar sermahsul bo'lgan davr hisoblandi. Bu o'rinda Boburiylar sulolasi amalga oshirgan buyuk ishlar-ni, jumladan Agradagi Toj-Mahal, Dehlidagi Qizil Qal'a, Humoyun maqbarasini va ajdodlarimiz yaratgan minglab bog'u-roq'larni eslashning o'zi kifoyadir.

Hindistonda Boburiylar sulolasi hukmronlik qilgan davrda nafaqat Turkiston xalqlarining eng yaxshi madaniy va ma'naviy an'analari, ayni paytda mamlakatni ichki

va tashqi boshqarish san'ati ham o'zlashtirilgan edi va ushbu an'analar bu o'lka Angliya tomonidan mustamlakaga aylantirilguncha saqlanib qolgan.

Bunga yaqqol misol sifatida O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan uch xonlik – Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklari davrida ham tadrijiy ravishda davom etgan ikki xil madaniyatga tegishli ikki xalq o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni keltirish mumkin. Bugungi kungacha saqlanib qolgan tarixiy manbalar ham shundan dalolat beradi. Ularda har ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy aloqalar, diplomatik munosabatlarning rivojlanishi, savdo-iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishi va rivojlanishi, shu bilan birga madaniy-ma'naviy qadriyatlarning almashinuvi jarayonlari batafsil sharhlanadi. Xususan, Buxoro xonligi bilan Boburiylar Hindistoni o'rtasidagi XVII asr va XVIII asr boshlaridagi siyosiy munosabatlar tarixiga murojaat etadigan bo'lsak, ular ham O'rta Osiyoda, ham Hindistonda yaratilgan qo'lyozmalarda o'z aksini topgan. Shuni ham qayd etish kerakki, mazkur masalaga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar mavjud emas. Bu haqdagi ma'lumotlar ko'p sonli memuar tusidagi asarlarda va boshqa manbalarda uchraydi: Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Abul Fazliy Allamiyning "Makotiboti Allomiy", Hofiz Tanish ibn Mirmuhammad al Buxoriyning "Abdullanoma", [3. 21-25]. Muhammad YUsuf al-Munshiyning "Tazkirai Muqimxoniy" asarlari va hokazo [4. 44].

Ayni paytda shuni ham qayd etish zarurki, bu turdagi asarlarda davlatlararo munosabatlarga oid ayrim elementlar: savdo aloqalarining rivojlanishi va an'anaviy qaror topgan ma'naviy qadriyatlarning almashishi jarayoni ifodalangan.

Buxoro xonligi bilan Hindiston o'rtasidagi o'zaro aloqalar rivojlanishi batafsilroq va ishonchliroq tadqiq etish imkonini beruvchi asar asli kelib chiqishi o'rtaosiyolik bo'lgan, Ashtarxoniylar sulolasiga mansub Xo'ja Mir Muhammad Salim tomonidan Hindistonda yaratilgan "Silsilat as-salotin" ("Hukmdorlar nasl-nasabi") asari hisoblanadi. Angliyalik sharqshunos olimi J.O. Berton ushbu asarning umuman, va xususan xalqaro masalalarga oid materiallarining xolisligi va hujjatlar bilan asoslanganligini ta'kidlagan edi. O'z tadqiqotlarida olimi Nodir Muhammadxon (1642

– 1645 yy. Buxoro xoni) siyosiy faoliyatini yoritishda “Silsilat as-salotin” asaridan keng foydalangan.[5. 24].

Snu tarzda ushbu materiallar Oʻrta Osiyo va Hindiston xalqlari koʻp asrlik tarixi va madaniyati asosida oʻzaro bir-biriga intilganliklaridan dalolat beradi. Bularning barchasi davlatlararo har tomonlama aloqalarni amalga oshirishga va xalqlarning maʼnaviy muloqotlariga imkoniyat yaratgan.

Ayni paytda Oʻzbekiston bilan Hindiston xalqlari oʻrtasida anʼanaviy ravishda qaror topgan muloqotlar mustamlakachilik davrida sinovdan oʻtdi. Bu davr har ikki davlat tarixida xalqlarning madaniy-maʼnaviy qadriyatlari barqarorligini koʻrsatdi.

Britaniyalik mustamlakachilarning zulmi ostida qolgan Hindiston 200 yil davomida ozodlik uchun kurash olib bordi. Ingliz mustamlakachilari tomonidan qatʼiy siyosat yuritilganligiga qaramay, hind xalqi oʻz ajdodlarining koʻp asrlik anʼanalariga sodiqligicha qoldi, madaniyatining oʻziga xosligini hamda jahon madaniyati bilan aloqadorligini saqlay oldi.

Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan oʻzbek xalqi ham ana shunday sinovlarni boshdan kechirgan. Chor Rossiyasining Oʻrta Osiyo hududini egallab olishga boʻlgan intilishi oʻsha davrda (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshi) ham harbiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan strategik ahamiyatga ega boʻlgan. Ushbu davrda xalqaro maydonda yirik davlatlar oʻrtasida qoʻl ostidagi hududlarni kengaytirish borasida kuchli raqobat kuzatilar edi. Oʻrta Osiyo esa Rossiya va Buyuk Britaniyaning mustamlakachilik manfaatlarining markazidan joy oldi. Buning sababi shundaki, ushbu hudud Osiyoda muhim strategik-harbiy ahamiyatga ega boʻlib, unda gʻarbning kapitalistik mamlakatlarning mustamlakachilik manfaatlari toʻqnash kelgan. Oʻrta Osiyo sanoatlashgan mamlakatlarning sanoat infratuzilmasini harakatga keltirishi mumkin boʻlgan xom ashyo manbai edi. Shu tarzda oʻzining uzoqni koʻzlovchi rejalarini amalga oshirish maqsadida Rossiya imperiyasi ham, Britaniya ham Oʻrta Osiyo va Hindistonning mahalliy xalqlari ustidan zoʻravonlik siyosatini olib borganlar.

Milliy-ozodlik harakatlari vaqtida esa mustamlakachilar ularni bostirish uchun ayovsiz ravishda harbiy kuchdan foydalangan.

G'arbdagi industrial-kapitalistik davlatlarning mustamlaka siyosati mahalliy xalqlarni tarixiy voqelikka bo'ysunishga majbur qildi. Ammo, hatto evropacha madaniyat, turmush tarzini majburiy singdirish avj olgan davrlarda ham o'zbek va hind xalqlari ajdodlarining ko'p asrlik an'analariga sodiqligini, milliy o'ziga xoslikni saqlay olgan.

O'zbek xalqi Rossiya mustamlakachiligidan so'ng yana yangi, ayni paytda shafqatsizligi jihatidan avvalgisidan qolishmaydigan sovet hokimiyati davrini boshidan kechirdi. Bunda ma'muriy -buyruqbozlik boshqaruv tizimi hukmron bo'lib, O'zbekiston va sobiq ittifoqning boshqa respublikalari markaziy organlarga to'liq qaram edi.

Sovet tuzumi davrida O'zbekiston o'zining iqtisodiy infratuzilmasini rivojlantirish imkoniga ega bo'lishiga qaramay, totalitar boshqaruv tizimi bunga yo'l qo'ymas edi. Natijada, sovet ittifoqi iqtisodiyotining markazlashganligi, rejali-taqsimlash siyosat bilan birgalikda O'zbekistonning milliy iqtisodiyotiga putur etkazib, umumittifoq xalq xo'jaligining xom ashyo manbaiga aylantirdi.

Sobiq ittifoqi xalqlari, shu jumladan O'zbekiston ham sovet-kommunistik mafkurasini hukmron bo'lgan davrda ma'naviy-ruhiy sohada ham qiyinchiliklarga duchor bo'lgan. Ushbu mafkura milliy madaniyatlarning keng yoyilishiga va umuminsoniy madaniyatlarga daxldorlikka yo'l qo'ymas edi.

Biroq markaziy organlar tomonidan davlat boshqaruvining qat'iy tartibi o'rnatilganligiga qaramay, o'zbek xalqi nafaqat sovet ittifoqida, balki xalqaro maydonda ham tanilishga muvaffaq bo'ldi. O'zbek xalqining ana shu xususiyatini alohida ta'kidlagan holda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov shunday degan edi: “ ... Diyorimiz kishilari qadim zamonlardan o'zlariga ma'lum bo'lgan Insoniyat bilan hamfikir bo'lib keldilar, yaqindan aloqa bog'lab yashadilar”[6. 78.]

Yaqin va uzoq xalqlar hayotiga bo'lgan qiziqish, ular bilan hamkorlikka intilishni hatto totalitar sovet davlati ham yo'q qila olmagan.

Sobiq SSSR Konstitutsiyasiga ko'ra ittifoqchi respublikalar, shu jumladan O'zbekiston ham suveren respublika sifatida xalqaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish huquqiga ega bo'lgan. Biroq ushbu huquq o'zining amaliy ifodasini topmadi. Bu esa shundan dalolat beradiki, suveren respublikalar konstitutsiyaviy huquqlarining e'lon qilinishi faqat tashviqot-targ'ibot tusiga ega bo'lgan. Shu sababli, O'zbekiston totalitar sovet davlatining qat'iy doirasida bo'lgani holda xalqaro maydonga bevosita chiqish imkoniga, o'zining tashqi siyosiy mahkamalariga ega bo'lmagan, unga mustaqil ravishda tashqi aloqalar o'rnatish huquqi berilmagan. Xalqaro aloqalar faqat Moskvaning ruxsati bilan va uning qat'iy nazorati ostida amalga oshirilgan. Natijada, respublikaning tashqi aloqalari sinfiy-mafkuraviy yo'naltirilganligi va deformatsiyalanganligi bilan ajralib turgan.

O'zbekistonning sovet davridagi cheklangan va deformatsiyalangan xalqaro aloqalarining dinamikasi va xarakteri bevosita sovet davlatining ichki va tashqi siyosati bilan belgilanganligi vaqt o'tgan sayin tobora yaqqolroq ko'rinmoqda. Shunga qaramay, O'zbekiston o'zbek xalqining jahon madaniyati bilan ko'p asrlik aloqalar uzilib qolmasligi uchun bor imkoniyatlarini ishga solgan. Ushbu jarayon o'zbek xalqining sovet ittifoqining xorijiy mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy hamkorlikka qo'shgan hissasida ham namoyon bo'ladi. Xalqaro hamkorlikning ana shu shakli orqali O'zbekiston tashqi dunyo bilan aloqalarini saqlay olgan. Bu o'rinda respublikamiz qadimdan tarixiy aloqalar o'rnatilgan davlatlar bilan o'zaro munosabatlarni saqlash va rivojlantirishga ustuvor ahamiyat bergan. Shular jumlasiga Hindistonni ham kiritish mumkin.

O'zbekiston va Hindiston xalqlari munosabatlarning ildizi qanchalik chuqur bo'lmasin, sovet davrida ular cheklangan tabiatga ega bo'lgan. Ushbu davrda

O'zbekiston Hindiston bilan munosabatlarini, boshqa mamlakatlar bilan bo'lgani kabi, sobiq ittifoqning sinfiy yondashuvga asoslangan ma'muriy -buyruqbozlik boshqaruv tizimining tashqi siyosiy aqidalaridan kelib chiqqan holda shakllantirishi mumkin edi. Bunda unitar davlatning tashqi siyosiy faoliyat organlarining ruxsati bilangina O'zbekiston SSSR va Hindiston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohadagi hamkorlikda epizodik tarzdagina ishtirok etishi mumkin edi.

Siyosiy sohada bunga yaqqol misol sifatida O'zbekistonning Hindiston-Pokiston ixtilofini hal etishga qo'shgan hissasini keltirish mumkin. Ma'lumki, Hindistonning mustaqilligi e'lon qilingach, ushbu davlat bilan Pokiston o'rtasida ikki marotaba – 1947-1948 yillarda va 1965 yilda ikki mamlakatga chegaradosh bo'lgan Kashmir hududi tufayli qurolli to'qnashuvlar sodir bo'lgan.[7.9.] Faqat tinchliksevar mamlakatlarning xatti-harakati oqibatida urush to'xtatilib, Hindiston va Pokiston rahbarlarining 1966 yilning yanvarida Toshkentdagi uchrashuvi bo'lib o'tgan[8.20.].Buning uchun aynan O'zbekistonning poytaxti tanlanganligi bejiz emas. Bu bir tomondan, har ikki xalqning ko'p asrlik tarixi, madaniyati va turmushi o'xshash ekanligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan bu o'zbek xalqining tinchliksevar pozitsiyasi, mojaroli vaziyatlarni echishda o'z yordamini ayamashligidan dalolat beradi.

Osiyoning ikki davlati etakchilarining O'zbekiston poytaxtida bo'lib o'tgan uchrashuvi Hindiston bilan Pokiston o'rtasidagi munosabatlarni tiklash uchun asos yaratgan Deklaratsiyaning imzolanishi bilan yakunlandi. Ayni paytda, respublikamizning mojaroli vaziyatni hal etishga qo'shgan hissasi o'zbek-hind munosabatlari rivojida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, ushbu siyosiy voqea oqibatida O'zbekiston Hindistonning eng yangi tarixidan ham o'rin oldi.

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar, xususan, Hindiston bilan aloqalari xususida so'z ketganda, shuni qayd etish lozimki, bunda respublika oliy o'quv yurtlari va o'rta maxsus bilim yurtlarida kadrlar tayyorlash alohida o'rin tutgan. Sovet davrining oxiriga kelib, har yili respublikamizda 24 oliy o'quv yurti va korxonalarda 10 ta mutaxassislik bo'yicha 74 davlat vakillari ta'lim olgan. Bular orasida asosan

Hindiston, Shri-Lanka, Vetnam, Suriya va boshqa mamlakatlar vakillari bor edi.[9.22-23.]O'zbekistonning bunday yordami yaqinda mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lgan ushbu mamlakatlarda oliy va o'rta maxsus ta'lim asoslarini shakllantirishga yordam bergan.

O'sha davrning salbiy voqeliklariga qaramay, o'zbek xalqi xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatishda qat'iylik ko'rsata olgan. An'anaviy ravishda qaror topgan o'zbek-hind munosabatlarida bu hol yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu aloqalar "Madaniyat kunlari", ijodiy jamoalar festivallari, tasviriy san'at ko'rgazmalarini o'tkazishda, musiqa va teatr san'ati vakillari bilan uchrashuvlarda va hokazolarda namoyon bo'ladi.

Masalan, tinchlik va xalqlararo do'stlik shiori ostida respublika hamdo'stlik qo'mitasi tashabbusi bilan Toshkentda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari kinofestivali o'tkaziladigan bo'ldi. Ushbu tadbir 1968 yildan buyon ikki yilda bir marotaba O'zbekiston poytaxtida o'tkazib kelindi. Shu bilan birga bironta kinofestival Hindiston kino ustalari ishtirokisiz o'tkazilmas edi. O'zbekistonning Hindiston bilan madaniy almashinuvida adabiy aloqalar alohida o'rin egallagan. Bunga 50 dan ziyod davlatlar vakillari ishtirokida o'tkazilgan yozuvchilar konferensiyasi turtki bo'ldi. U dunyoda nihoyatda katta qiziqish uyg'otdi, chunki mazkur anjumanda xalqlarning tinchlik, ozodlik va demokratiyaga bo'lgan intilishi bor kuchi bilan namoyon bo'ldi. Bundan tashqari, O'zbekiston va Hindiston yozuvchilari bir-birlaridan yangi adabiy janrlarni o'zlashtirishdi, asarlarini mahalliy xalqlar tillariga o'girishdi. Oqibatda o'zbek adiblarining asarlari hindistonlik kitobxonlar o'rtasida qiziqish uyg'otganligi ma'lum bo'ldi. Ularning ayrimlari esa yuksak mukofotlarga sazovor bo'lishdi. Jumladan, Hindiston bilan madaniy aloqalarni mustahkamlashga qo'shgan hissasi uchun shoira Zulfiyaga J. Neru laureati unvoni berildi.

Shunday qilib, kommunistik mafkura hukmron bo'lgan sovet totalitar tuzumi zulmiga qaramay, sobiq sovet ittifoqi xalqlari xorijiy davlatlar xalqlari bilan aloqalarni saqlab qolishga uringan. Ammo bu hol xalqaro standartlar talablariga javob beradigan

davlatlararo munosabatlarga bo'lgan haqiqiy ehtiyojni qondira olmas edi. Shu nuqtai nazardan ma'lum bo'ldiki, har ikki xalq vakillari qanchalik intilmasin, O'zbekiston-Hindiston hamkorligi cheklanganligicha qoldi.

O'zbekiston Respublikasining milliy mustaqillikka erishuvigina ming yillar davomida o'zbek va hind xalqlari o'rtasida an'anaviy ravishda qaror topgan aloqalarni tiklash, umuman, ko'p tomonlama faol tashqi siyosat yuritish imkonini yaratdi.

Shunday qilib, O'zbekiston va Hindiston xalqlari insonparvarlik va tolerantlik g'oyalariga sadoqatning ko'p asrlik an'alarini saqlagan holda davlatlararo muloqotning serqirra shakllarini mustahkamlash masalalarida qarashlar va yondashuvlar birligini hozirgi zamon sharoitlariga o'tkazishga erishdilar.

Foydalanildan adabiyotlar:

1.Sherozovich, M. B. (2024). CONFLICT SITUATIONS IN THE PROCESS OF TRAINING INDUSTRY PERSONNEL IN SURKHANDARYA AND KASHKADARYA REGIONS: HISTORICAL ANALYSIS AND RESULTS (1925-1950). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(5), 221-225.

2.Sherozovich, M. B. (2024). DEVELOPMENT OF HEAVY INDUSTRIES IN THE SOUTHERN PROVINCE OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND CONSEQUENCES (1930-1960). *Modern education and development*, 16(5), 267-277.

3.Маматкулов, Б. (2024). Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, kadrlar tarkibini shakllantirish jarayonlari (1925-1950-yy). *Общество и инновации*, 5(5), 211-218.

4.Mamatkulov, B. (2021, November). A New Interpretation of Industry in Uzbekistan During Independence. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (pp. 158-161).

5..Асадова, Р. (2024). О 'zbekiston va Hindiston o 'rtasida savdo va ilmiy-texnik hamkorlik. *Общество и инновации*, 5(5), 227-231.

6.Асадова, Р. Б. (2021). ИСТОРИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА И ИНДИИ ЗА ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 18, 43-47.

7.Boymanova, A. R. (2024). HISTORICAL BASIS OF COOPERATION BETWEEN THE STATES OF UZBEKISTAN AND INDIA. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 2(3), 62-67.

8. Shonazarovich, Q. A., & Adilovna, B. G. (2024). OLTIN VOHA TEPALARI TILSIMI-TARIX KO'ZGUSIDA: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(2), 86-94.

9. Shonazarovich, K. A. (2023). Development of the Craft Industry in the City of Karshi at the Beginning of the 19th-20th Centuries. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(12), 135-138.

10.Shonazarovich, Q. A. (2024). IN 1925-1954, THE MEASURES FOR THE SPECIALIZATION OF UZBEKISTAN AS THE MAIN COTTON BASE OF THE USSR AND ITS CONSEQUENCES. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(5), 67-71.

11.Shaxnoza, E. (2024). QASHQADARYO VILOYATIDA IJTIMOY-GUMANITAR FANINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O 'RNI. *Modern education and development*, 16(5), 216-226.

12.Elboyeva, S. B. (2022). МИЛЛАТЛАРАРО ҲАМЖИҲАТЛИК–ХАЛҚИМИЗ ТИНЧЛИГИ ВА ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИДИР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 377-385.

- 13.Elboyeva, S. B. (2022). YOSHLARDA YUKSAK MA'NAVIYATNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 576-581.
- 14.Ergashev, U. K. (2024). SOCIO-POLITICAL PROCESSES IN GUZOR PROVINCE. *Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions*, 2(5), 157-162.
- 15.Ergashev, U. K. (2024). THE BUKHARA EMIRATE: A HISTORICAL OVERVIEW. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(12), 131-135.
- 16.Kuziyevich, E. U. (2024). GUZOR FORT IN THE PERIOD OF BUKHARA EMIRATE. *European Science Methodical Journal*, 2(5), 192-198.
- 17.Nilufar, E. (2024). MUSTAQILLIK YILLARIDA YIRIK SANOAT SOHASIDAGI ISLOHOTLAR. *Modern education and development*, 16(5), 250-259.
- 18.Esanova, N. P. (2024). MAIN FACTORS OF TEXTILE INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (1991-2021 Years). *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(9), 5-13.
- 19.Nilufar, E. (2024). O 'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BEZNIS VA XUSUSIY TADBIRKORLIK MEKANIZMNING YARATILISHI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA). *Научный Импульс*, 3(26), 275-279.
- 20.Ochilova, N. R. (2022). CURRENT STATUS OF UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(12), 255-258.
- 21.Ruzimuratovna, O. N. (2024). DEVELOPMENT OF CREATIVE AND CREATIVE POTENTIAL. *International journal of artificial intelligence*, 4(03), 442-443.

22. Ruzimuratovna, O. N. (2022). WAYS TO ABSORB THE NATIONAL IDEA IN THE YOUTH MIND. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 122-124.

23. Akhmedova, D. S. (2023). SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 304-309.

24. Sadullayevna, A. D. (2023). Young People-The Creators of New Uzbekistan. *The Peerian Journal*, 25, 11-16.

25. Sadullayevna, A. D. SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW.

26. Qurbonova, M. U. B. (2022). HUQUQIY VA SIYOSIY MADANIYAT O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI BARPO ETISHNING ASOSIY BO‘G‘INI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 342-346.

27. Qurbonova, M. U. (2024). XOTIN-QIZLARNING JAMIYATDAGI IJTIMOIIY ROLINING O‘ZGARISHI. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 5(56), 21-24.

28. Boltayevna, Q. M. U. (2021). GLOBALLASHUV JARAYONLARI VA G‘OYAVIY-MAFKURAVIY XAVFSIZLIK MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 104-110.

29. Ochilova, N. R., Elboeva, S. B., & Buriev, I. I. (2021). ISSUES OF FORMATION OF UNIVERSAL VALUES IN THE DEVILMENT OF NATIONAL CULTURAL CENTERS. *Scientific progress*, 2(2), 496-500.

30. Ochilova, N. R. (2023). Typology of civilizations. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 121-127.

31. MAMATQULOV, B. (2024). O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT KORXONALARINING TASHKIL ETILISHI VA HUDUDLAR

SANOATINING IXTISOSLASHUVI JARAYONINING TARIXIY TAHLILI (1930-1950 yy). *News of the NUUz*, 1(1.2. 1).

32. Sherozovich, M. B. (2025). О 'ZBEKISTONDA XX ASRNING 30-40 YILLARDA SANOAT ISHCHILARI TARKIBINI SHAKLLANTIRISH VA KADRLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR (JANUBIY VILOYATLAR MISOLIDA). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 63(4), 490-502.

33. Маматкулов, Б. (2024). Развитие сетей легкой промышленности в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской области, процессы формирования кадров (1925-1950 гг.). *Общество и инновации*, 5(5), 211-218.

34. Sherozovich, M. B. (2025). О 'ZBEKISTONDA XX ASRNING 30-40 YILLARDA SANOAT ISHCHILARI TARKIBINI SHAKLLANTIRISH VA KADRLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR (JANUBIY VILOYATLAR MISOLIDA). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 63(4), 490-502.